

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025
IJTIMOIIY
FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Sh.T.Abbosova	
Ma'furaviy tahdidlarni bartaraf etishda milliy g'oyaning ro'li	98
Б.А.Абилова	
Суфийские ордена и их роль в историко-политических процессах средневековья	102
X.Q.Abdumutalov	
Yangi O'zbekistonda komil insonni shakllantrishda milliy g'oyaning o'rni.....	107
M.M.Gulamova Xoja	
Muhammad Porsoning irfoniy qarashlarida insonning ma'naviy kamoloti va ontologik mohiyati ..	110
R.Sh.Alisher	
Mirbobo Naqshbandiyni inson kamoloti qalbni sayqallash, unga ma'naviy ozuqa berish haqidagi mulohazalari	115
S.S.Hamroyev, D.Sh.Shuxratova	
Yangi O'zbekistonda oila institutini isloh qilishning ijtimoiy-huquqiy asoslarining ishlab chiqilishi	119
F.S.Qosimov	
Falsafa nigohida inson kapitalining shakllanishi va taraqqiyotdagi roli.....	124
B.M.Madaminov	
Yoshlarni axloqiy tarbiyalashda o'zbek xalqi milliy qahramonlik tuyg'usini mustahkamlashning nazariy-metodologik asoslari	129
F.F.Dadaboyev	
Yangi O'zbekistonda tadbikorlik faoliyatining rivojlanishida halollik va axloqiy qadriyatlarning ijtimoiy roli	133
M.O.Oripova	
Jamiyatda inson begonalashuvi fenomenining mohiyati va falsafiy mazmuni	137
Д.Р.Вахабова	
Возникновение философских взглядов в персидско-таджикской литературе (Абу Абдулла Рудаки)	142
A.A.Salmonov	
Inklyuziv jamiyat: tushuncha va falsafiy tahlili.....	147

SIYOSAT

A.A.Ahrorqulov, A.To'xtasinov	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning kelib chiqish omillari	152
G.O.Sa'diyeva	
Markaziy Osiyodagi zamonaviy geosiyosiy tendensiyalar	156
R.A.To'ychiyeva	
Yangi davrda Hindiston tashqi siyosatidagi o'ziga xos ustuvor va farqli jihatlar	163
D.Mamadjonova	
Prokuratura tizimida inson huquqlarini himoya qilish: qonunchilik asoslari va amaliyot	172
X.Qodirov	
Nodavlat notijorat tashkilotlar tizimida kasaba uyushmalarining tutgan o'rni.....	176
P.I.Ovulov	
Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etishi	180

TARIX

B.B.Iminov	
O'zbekiston Respublikasida nodavlat ta'lim muassasalarining vujudga kelish tarixi	185
A.U.Hamroyev	
Amir Haydar – ijtimoiy adolat tarafdori bo'lgan hukmdor.....	190
A.U.Hamroyev	
Gulshanul muluk asarida mang'itlar boshqaruvi davrida jamiyat iqtisodiy hayotining yoritilishi	194
M.M.Azimova	
Farg'ona vodiysida qishloq-vrachlik punktlari faoliyatidagi o'zgarishlar tahlili.....	198

UO₄K: 378.1+343.352+316.334.2**OLIY TA'LIM SOHASIDA KORRUPSIYAVIY XAVF-XATARLARNING KELIB CHIQISH OMILLARI****ФАКТОРЫ, СПОСОБСТВУЮЩИЕ ВОЗНИКНОВЕНИЮ КОРРУПЦИОННЫХ РИСКОВ В СФЕРЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ****FACTORS CONTRIBUTING TO THE EMERGENCE OF CORRUPTION RISKS IN THE FIELD OF HIGHER EDUCATION****Ahrorqulov Anvar Anvarovich¹** ¹Farg'ona davlat universiteti Huquq ta'limi kafedrasida dotsenti**To'xtasinov Asadbek²** ²Farg'ona davlat universiteti yurisprudensiya yo'nalishi talabasi**Annotatsiya**

Respublikamiz hududidagi barcha davlat, nodavlat va chet davlat oliy talim muassasalarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy holatlarning omillari, ularga qarshi kurashish mumkin bo'lgan samarali usullar to'g'risida.

Аннотация

О факторах коррупции, которые могут возникнуть во всех государственных, негосударственных и зарубежных высших учебных заведениях на территории нашей республики, и эффективных способах борьбы с ними.

Abstract

About the factors of corruption that can occur in all state, non-state and foreign higher education institutions in the territory of our republic, and effective ways to fight against them.

Kalit so'zlar: "Korrupsiya omili", "Adolat tamoyili", "Servis xizmati", "Jinoiy holat tuzilishi".

Ключевые слова: «Фактор коррупции», «Принцип справедливости», «Служба», «Структура криминального статуса».

Key words: "Factor of corruption", "Principle of justice", "Service", "Structure of criminal status".

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida keng doiradagi islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, eng ko'p korrupsiya tarqalgan sohalardan bo'lmish oliy ta'lim tizimida ham katta ishlar amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi yosh avlodning yaxshi bilim olishi va ertangi kun uchun yetakchi kadrlar bo'lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kelib chiqish omillarini aniqlash, ularni tahlil qilish jarayonidagi eng muhim bosqich hisoblanadi. Mazkur bosqichda butun tizimdagi ma'lumotlar umumlashtirilib, turli usullarda tahlil qilinadi.

Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarning kelib chiqish omillarini amaliy va statistik ma'lumotlar asosida ko'rib chiqib, o'ziga xos tarzda tahlil qilish bu sohada olib borilayotgan ishlarning qay darajada ekanligini namoyon etadi.

Oliy ta'lim tizimidagi korrupsiya talabani o'qishga kirishidan boshlab, to diplom olishiga qadar bo'lgan har bir bosqichda ko'zga tashlanadi, mazkur masalalar juda keng bo'lgani sababli eng dolzarblariga to'xtalib o'tamiz.

ASOSIY QISM

Oliy ta'limga davlat tomonidan ajratilgan mablag'lar miqdori oshgan sari budget mablag'larini talon-toraj qilish bilan bog'liq huquqbuzarliklar ham o'sib bormoqda.

Jumladan, sohada 2019 yilda 16,7 mlrd. so'mlik moliyaviy qonunbuzarliklar aniqlangan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018 yilga nisbatan 10,1 mlrd. so'mga ko'paygan va tizimdagi 103 nafar mansabdor hamda mas'ul xodimlar jinoiy javobgarlikka tortilgan. Budget mablag'lari talon-toraj qilingani holati bo'yicha Jinoyat kodeksining 167-moddasi bilan 52 nafar xodimga nisbatan 42 ta jinoyat ishi qo'zg'atilgan bo'lib, ulardan 15 nafari rahbar, 31 nafari hisobchi, 3 nafari moddiy javobgar shaxs

SIYOSAT

(hazinachi, ombor mudiri va boshqa) hamda 3 nafari boshqa lavozimda ishlovchi xodimlar hisoblanadi[7].

Dastlabki tergov harakatlari o'tkazilgan 42 ta jinoyat ishlari o'rganilganda, aybdor shaxslar tomonidan budjet mablag'lari quyidagi puxta ishlab chikilgan jinoiy usullar yordamida talon-toraj qilinayotgani aniqlandi. Xususan,

21 ta jinoyat ishida mablag'lar ish haki va mukofot pullarini hisoblashda sun'iy orttirilgan ko'rsatkichlar kiritilgan sohta hujjatlar asosida talon-toraj kilingan;

16 ta jinoyat ishida oylik ish haqlarini avtomatlashtirilgan tizimda hisoblovchi ("Uzasbo") kompyuter dasturiga asossiz ma'lumotlar (aksariyat: ish haqining bazaviy stavkalarini orttirib ko'rsatish) kiritish;

3 ta jinoyat ishida hisobda turgan mulklarni begonalashtirish hamda muassasada joriy va kapital ta'mirlash ishlari bajarilgani haqidagi hisobot hujjatlariga aslida bajarilmagan ish hajmlarini qo'shib yozish;

2 ta jinoyat ishida aslida muassasada ishlamaydigan xodimlarga soxta xujjatlar asosida ish haqi hisoblash orqali.

Budjet mablag'larini talon-toraj qilinishiga quyidagi omillar sabab bo'lmoqda:

Birinchidan, quyi tizimda ishlayotgan rahbarlarni buxgalteriya sohasida yetarli bilim va malakaga ega emasligi va moliyaviy masalalarga yetarlicha e'tibor qaratilmasligi hisoblanadi.

Ushbu toifadagi jinoyatlar muassasa hisobchilari tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy jinoiy sxemalar asosida sodir etilmoqda va mazkur holatda rahbarning moliyaviy bilimsizligi hisobchilarga uchun imkoniyat yaratmoqda.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 avgustdagi "Ta'lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Karori jrosi vazirlik va uning tizimida tashkil etilgan ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlari tomonidan bajarilmayapti.

Xususan, mazkur qarorga asosan ta'lim va tibbiyot muassasalarida ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlarini tashkil etishdan asosiy maqsad davlat budjetidan ajratilayotgan mablag'larni maqsadli sarflanishini ta'minlash, budjet qonunchiligiga rioya etilishini profilaktika qilish hisoblanadi.

Biroq, muassasalarda zamonaviy axborot texnologiyalari vositalari yordamida ("Uzasbo") budjet mablag'larini sarflanishi ustidan davriy nazorat tashkil etilgan bir vaqtda, budjet qonunchiligini buzish holatlarini oldini olishga qaratilgan davlat moliyaviy nazoratining eng ustuvor vazifalari to'liq amalga oshirilmayapti.

Uchinchidan, ish haqi va boshqa to'lovlarni hisoblash inson omiliga bog'liq bo'lib, dasturga hisobchi tomonidan ma'lumotlar kiritish imkoniyati cheklanmagani, doimiy nazoratga olinmagani sababli moliyaviy ma'lumotlar to'g'riligi faqat davriy tekshiruvda aniqlash mumkin.

Ish haqi va boshqa mablag'larni to'lash bevosita xodimga oid buyruqlarga bog'liq bo'lishiga qaramasdan ish haqi dasturiga xodimlar bo'limi elektron tarzda bog'lanmagan, dasturga buyruq va boshqa ish haqini to'lash uchun asos bo'ladigan hujjtlarni elektron shaklini yuklash tashkil etilmagan, moliyaviy nazorat organlarida doimiy elektron nazorat vositasi mavjud emas.

To'rtinchidan, budjet mablag'lari va moddiy resurslarni tasarruf etishda, davlat xaridlarini amalga oshirishda mutloq vakolat rahbar va hisobchilar qo'lida bo'lib, mazkur faoliyat ustidan jamotchilik nazorati, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlovchi manfaatdor shaxslardan shakllantirilgan institutsional tuzilmalar mavjud emas.

Jumladan, muassasaga turli uskunalar, jihozlar va o'quv resurslarini sotib olish, qurilish hamda kapital ta'mirlash ishlarini olib borishda davlat mablag'lari moliya tashkiloti mansabdorlari, muassasa rahbari, hisobchisi, qurilish bo'yicha mutaxassis, xo'jalik bo'limi mudiri xodimlari o'rtasida turli tizimli jinoiy mexanizmlar asosida talon-toraj qilinmoqda.

Beshinchidan, OTMni o'zini-o'zi moliyaviy ta'minlash joriy etilmaganligi davlat budjeti mablag'larini o'zlashtirishning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 3 dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarini bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish to'g'risida"gi 967-sonli qarori bilan 2020 yil 1 yanvardan boshlab, tajriba-sinov tariqasida 10 ta OTMga o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tishga ruxsat berildi[8].

O'tgan o'quv yillar davomida o'qishga kiritib qo'yish vaji bilan bir necha nafar oliy ta'lim xodimlari tamagirlik qilgan.

Tezkor ma'lumotlarga ko'ra, o'qishga kiritish uchun talab qilinayotgan pora miqdori 1 mingdan 10 ming AQSH dollarigacha bo'lib, porapxo'rlik asosan sirtqi, kechki, maxsus sirtqi va ikkinchi mutaxassislik yo'nalishlariga qabul qilishda keng tarqalgan.

Xususan, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o'qituvchisi "A" fuqaro "B"ni institutning buxgalteriya fakulteti sirtqi yo'nalishiga o'qishga kiritish uchun 10 ming AQSH dollari olgan vaqtda ushlangan.

Ijodiy imtihonlar topshirish jarayonida ham ko'plab suiiste'mollik holatlariga yo'l qo'yilmoqda.

Jumladan, Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi "M", universitet qabul komissiyasi faoliyatida ishtirok etganligidan foydalanib, fuqaro "B"ni jismoniy madaniyat yo'nalishiga o'qishga kirishi uchun ijodiy imtihondan yuqori ball qo'ydirib berish evaziga 6 ming AQSH dollari olgan vaqtda ushlangan.

Oliy o'quv yurtlari talabalari ham turli jinoyatlarga qo'l urayotgan bo'lib, so'nggi ikki yilda 21 nafar talaba yoshlar bunday jinoyatlarga aralashgani sababli javobgarlikka tortilgan.

Masalan, Andijon davlat tibbiyot instituti 5-bosqich talabasi "A" fuqaro "B"ni institut rahbarlari orqali o'qishga kiritib qo'yish uchun 12 ming AQSH dollari olgan vaqtda qo'lga olingan[9].

Davlatimiz rahbarining qarorlari bilan 2018 yil 1 sentabrdan boshlab, xorijiy o'quv yurtlari bilan hamkorlikda talabalarni o'qitish va ikki tomonlama tan olinadigan diplom berish amaliyoti joriy etildi.

Hozirda 55 ta oliy o'quv yurtlarida xorijiy hamkorlar bilan 83 ta bakalavriat va 64 ta magistratura yo'nalishlarida kadrlar tayyorlanmoqda. Afsuski, bu jarayonda ham turli suiste'molliklarga yo'l qo'yilmoqda.

Misol uchun, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining "Paxta sanoati texnologiyasi" fakulteti dekani o'rinbosari "A" fuqaro "B"ni "Kosigin" nomidagi Rossiya davlat universiteti bilan hamkorlikda tashkil etilgan qo'shma fakultetga kiritib qo'yish evaziga 3,5 ming AQSH dollari olgan vaqtda ushlangan.

Toshkent shahridagi 4 ta Rossiya bilan qo'shma fakultetlarda talabalarining rus tilini bilish darajasi o'rta maktab dasturlari asosida o'rganilganda, natijalar o'ta qoniqarsiz bo'lgan.

Xususan, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti qo'shma fakultetining sinovda ishtirok etgan talabalaridan 75 foizi diktantdan "qoniqarsiz" baho olgan bo'lib, rus tilida ta'lim olayotgan 2-kurs talabasi, o'z familiyasi, institut va fakultet nomini to'g'ri yozib bera olmagan va diktantdagi jami 113 ta so'zdan bor-yo'g'i 4 tasini to'g'ri yozgan. Vaholanki, bu fakultetlarga kirish imtihonlari rus tilida o'tkazilgan, darslar rus tilida olib boriladi, bu talabalar o'qishining keyingi 2 yilini Rossiyada davom ettirishi kerak[10].

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqoridagi korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni kelib chiqishiga quyidagi omillar sabab bo'lmoqda.

Birinchidan, kirish imtihonlari, ya'ni test sinovlari eskirgan bo'lib, asosan yodlash va xotirada saqlash qobiliyatiga asoslangan. Bu ayniqsa, ijtimoiy va tabiiy fanlar yo'nalishlarida keng tarqalgan. Test sinovlari nomzodning dunyoqarishi, mantiqiy fikrlash qobiliyatlari, umuman olganda sof bilim darajasini belgilab bera olmaydi.

Ikkinchidan, test sinovlariga talabalardan ko'p ma'lumotlarni yodlash talab etilgani ularni o'z bilimlariga ishonmaslikka, imtihon adolatli bo'lmasligi haqida tasavvurlar shakllanishiga olib kelmoqda va bu ularni, ota-onalarni o'qishga kirishda noqonuniy yo'llaridan foydalanishga undamoqda.

Uchinchidan, mamlakatimizda kirish imtihonlari kompyuter texnologiyalari asosida o'tkazilmaydi, talaba o'z imtihon natijasini ma'lum muddat o'tgandan so'ng biladi. Imtihonlar natijalarini tekshirish inson omiliga bog'liqligi, albatta, korrupsiyaviy holatlarga sabab bo'ladi.

To'rtinchidan, kirish test sinovlari video tasvirga olinayotgan bo'lsada, ayrim ijodiy imtihonlarni tasvirga olish, uni saqlash talablari umuman mavjud emas. Sport, amaliy san'at bo'yicha imtihonlar sifatli video tasvirga olinmagani sababli arizalarni to'liq o'rganish imkoniyati bo'lmayapti.

Beshinchidan, mamlakatimizda oliy ta'limning qamrov darajasi past bo'lib, 2019 yilda bu ko'rsatkich 20 foizni tashkil etmoqda va raqobat kuchliligi nomzodlarni barcha imkoniyatlardan foydalanishga undamoqda.

Oltinchidan, imtihonlarni qisqa muddatda juda ko'p nomzodlar ishtirokida o'tkazilishi nazorat sifatiga salbiy ta'sir qilib, korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etishga imkon yaratmoqda.

SIYOSAT

Yettinchidan, DTMni nazorat qilish tartib va qoidalari aniq belgilanmagani sababli DTM faoliyatida hisobdorlik, ochiqlik va oshkoralik mavjud emas.

Bugungi kunda biz barchamiz bir bo'lib korrupsiyaga qarshi qancha jadal kurashsak, albatta, bu qaysi soha bo'lishidan qat'iy nazar albatta jamiyat ravnaqi uchun ahamiyatli hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. SH.M.Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza, 2018 yil 7 dekabr.
2. SH.M.Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo'llagan murojaatnomasi, 2020 24 yanvar.
3. Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Respublika Idoralararo komissiyaning yig'ilish bayoni, "Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish va qonuniylilikni ta'minlashga doir masalalar" – 2019 yil 18 yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar ma'lumotlari milliy bazasi, 2019 y., 06/19/5847/3887-son.
5. Osipian A. "Glossary of Higher Education Corruption with Explanations", 2009, p – 26. <http://people.vanderbilt.edu/~ararat.osipian>. <http://www.osvita.org>
6. Trivunovic M and others, "Developing an NGO corruption risk management system:
7. Considerations for donors", U4 Issue, 2019, p – 6. Monica K, "Education sector corruption: How to assess it and ways to address it" U4 Issue, 2019, p – 28.